

## TALABALARNING IJTIMOIY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15588410>

**Mirzayev Shavkat Turdibayevich**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti*

*Harbiy ta'lif fakulteti umumqo'shin tayyorgarlik*

*sikl katta o'qituvchisi*

### **Annatatsiya**

Ushbu maqolada oliy ta'lif muassasalari talabalarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlanirishning ijtimoiy pedagogik zaruriyat va Chaqiriqqacha harbiy ta'lif fakultetlari talabalarining ijtimoiy-mas'uliyatini rivojlanirish bo'yicha tahliliy tushunchalar mavjud.

### **Kalit so'zlar**

pedagog, oliy ta'lif, talaba, harbiy, ijtimoiy-mas'uliyat, tarbiya, ilm-fan, ma'naviy, axloqiy.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОТРЕБНОСТИ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СТУДЕНТОВ

**Мирзаев Шавкат Турдибаевич**

*Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами*

*Факультет военного образования общевойсковая подготовка*

*старший преподаватель цикла*

### **Аннотация**

В статье изложены аналитические концепции социально-педагогической необходимости развития социальной ответственности студентов высших учебных заведений и развития социальной ответственности студентов факультетов военного образования перед призывом.

### **Ключевые слова**

педагог, высшее образование, студент, военный, социальная ответственность, образование, наука, духовное, нравственное.

## PEDAGOGICAL NECESSITIES OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL RESPONSIBILITY OF STUDENTS

## **Mirzayev Shavkat Turdibayevich**

*National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami*

*General training of the Faculty of military education*

*cycle senior teacher*

### **Annotation**

This article contains analytical concepts of the social pedagogical necessity of developing the social responsibility of students of higher educational institutions and the development of social responsibility of students of military education faculties before the draft.

### **Key words**

pedagogue, higher education, student, military, social responsibility, education, science, spiritual, moral.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida yosh avlod tarbiyasi va ularning ijtimoiy mas'uliyatliligi masalasiga to'xtalar ekan: "har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rinn tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz", - deya ta'kidlaganlari ham bejiz emas.[1]

O'zbekiston Respublikasida ta'lim taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida mamlakatda o'sib kelayotgan yosh - avlodni ijtimoiy mas'uliyatli keljak avlod taqdiri uchun jon kuydiradigan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, respublikamizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan holda ilm-fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan holda samarasini bermoqda.

Zamonaviy ta'lim sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirish mamlakatimiz har bir fuqarosining muqaddas burchidir. Chunki, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish ta'lim-tarbiya berayotgan ofitserlar tarkibining ham asosiy vazifasi hisoblanadi. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim talabalari ijtimoiy-mas'uliyatini rivojlantirishda ta'lim fan tarmog'ining ijtimoiy gumanitar sohasi orqali singdirib borish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalar o'quv-tarbiya jarayonida egallagan bilim va ko'nikmasi ijtimoiy fan sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar tahlili ham mas'uliyatli - talabalar shaxsining barcha qarashlarida ijtimoiy hodisa ekanligi va shu sababli uni fanlararo rivojlanish darajasida o'rganish zarur ekanligi haqida xulosa chiqarishga imkon tug'diradi. Pedagogik tadqiqotlar tahlili va ijtimoiy munosabatlarga kirishda mas'uliyatlilik to'g'risida to'xtalishdan oldin, "mas'uliyat" tushunchasining etimologik tahliliga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

Biz ilmiy izlanishlarimizda ijtimoiy mas'uliyatli talabalarni tarbiyalash deb, shaxs o'z harakatlari, ijtimoiy pedagogik-psixologik sifatlari, huquq va erkinliklari, majburiyati, vatan rivoji va xavfsizligi yo'lidagi burchi, javobgarlik hissiga ega bo'lgan kasbiy sifatlari yetuk shaxsga aytildi.

Xususan talabalarda mas'uliyat hissining rivojlanishi, chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarining majburiyatlari, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga jon-dili bilan astoydil munosabatda bo'lishi, o'z xatti-harakatlari amallari uchun javob bera olish zarurati bilan belgilanadi. Ilm-fan taraqqiyotida "mas'uliyat" tushunchasi falsafiy jihatdan, quyidagicha talqin qilish mumkin.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlar doirasida A.Begmatov[2] talaba-yoshlarning ma'naviy axloqiy qarashlarini rivojlatirish, M.Quronov [3] umumta'lim tizimida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslari, O.Musurmonova [4] yoshlarning ma'naviy madaniyati-ni shakllantirish, Q.Quronboyev [5] talabalarning ma'naviy - ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari muammolariga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar.

A.Begmatov o'z tadqiqotlari jarayonida ta'lim-tarbiya jarayonida shaxs faolligi uning jamiyat manfaatlari bilan shaxs manfaatlari o'rtasida uyg'unlikni mavjud bo'lishi, agar mavjud bo'lsa bunday holat shaxsni jamiyat manfaatlari yo'lida ham o'z manfaatlari yo'lida ham jonbozlik ko'rsatishga undaydi", - deb ta'kidlaganlari ham bejiz emas. Chunki, inson tarbiyasida insonparvarlik ijtimoiy mas'uliyatlilik tamoyillari alohida o'rinni egallashi lozim. [2]

Q.Quronboyev o'z ilmiy tadqiqotlari doirasida "talaba-yoshlarning ma'naviy - ijtimoiy faolliklarini rivojlantirish uslublari va mazmuni, pedagogik asoslari, ma'naviy - axloqiy muammolar, yoshlar ta'lim-tarbiyasida ongli intizomning o'rni, burchi va mas'uliyatliligi, talabada jamoatchilik sifatlarini tarkib toptirish" ning asosiy ustuvor masalalariga to'xtalib o'tgan. [5]

O.Musurmonova ilmiy izlanishlari doirasida ta'lim -tarbiyada axloqiy ong, vijdon, burch, mas'uliyat, hayo, g'urur kabi insonning fe'l-atvorini ichki boshqarish qurilishiga asoslanadi. Ahloqning mag'zini tashkil qiluvchi bosh qoidalar insonparvarlik, demokratizm, halol mehnat, o'zaro yordam, do'stlik, hamkorlik,

o'zaro hurmat, baynalminalchilik vatanparvarlik, tabiat va atrof muhitga diqqat-e'tibor, burch hissi hamda kamtarlik, ko'zbo'yamachilik va yolg'izlikni inkor etish kabi insoniy sifatlarning muhim ahamiyat kasb etishi xususida o'z tadqiqotlarida ifodalab o'tgan. [4]

Xorij olimlaridan G.V.Kovaleva[6], N.K. Golubev [7]lar tadqiqotlarida ijtimoiy mas'uliyat muammosi bo'yicha o'z ilmiy ishlarining tahlili ham uning tavsifiga bo'lgan yondashuvlarning turli tumanligi masalalariga alohida urg'u berib o'tgan.

T.G. Ivanenko tadqiqotlari doirasida insonning o'z burchini bajarishga bo'lgan qobiliyati, shaxsning axloqiy-qadriyati, individning o'z xulq-atvori, umumqabul ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishi, o'z majburiyatlari bajarish jarayoni jamiyat va o'zi oldida o'z harakat faoliyati uchun hisob berishga tayyorlik sifatlari, intellektual-irodaviy jihatlariga to'xtalib o'tgan [8].

G.V.Kovalyova tadqiqotlari doirasida "mas'uliyat" tushunchasini shunday ifodalarydi, insonning xulq-atvorini uning faoliyatning umumqabul qilingan maqsadlar va qadriyatlarga bog'liqligini anglashi asosida belgilaydigan shaxsning integral sifati deb ta'kidlab o'tadi. [9]

N.K. Golubev tadqiqotlari doirasida mas'uliyatli, ijtimoiy o'zini his qilish va ijtimoiy identifikatsiya bilan bir vaqtda, shaxsning ta'lism-tarbiya jarayonida shakllanadigan va rivojlanadigan sifatlari, insonning butun hayotiy faoliyatida ijtimoiy yo'naltirilganligi, yaxlit xislat sifatida ijtimoiy xulq-atvorning asosiy jihatlariga to'xtalib o'tgan. [10]

Harbiy ta'lism fakultetlari talabalarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida quyidagi jihatlarni rivojlantirish: oliy ta'lism muassasalarini talabalar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda shaxsning ichki ruhiyatiga ta'sir etuvchi motivlar orqali talaba o'z menini shakllantirish; oliy ta'lism muassasalarini talabalarida ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiluvchi ta'sir doiralariga yaqin atrofdagi guruhrilar jamoasi, hamkasblari, do'stlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonida mas'uliyatli bo'lishini rivojlantirish; talabalar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirish, ta'lism jarayonida pedagoglar faoliyat jarayoni bo'yicha guruh komandri, soxa mutaxassis hamda ijtimoiy harakatlar jarayoniga pedagogik ta'sir etishning ta'lism vositalari bilan rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lism yo'nalishi talabalarida ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlanganlik jihatlari quyidagi omillar o'z aksini topadi: talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissi uzoq vaqt davomida shakllanib borish orqali harakatga keltirishda intellektual qobiliyatini rivojlantirishi; talaba o'z faoliyatini balki boshqalarning ijtimoiy xatti-xarakatlari doirasida balki ijtimoiy mas'uliyat hissini qaror toptirish malakasining rivojlanganligi; harbiy ta'lism fanlarida

talabalarga berilgan vakolatlar doirasida o'z guruhini boshqarishda ijtimoiy mas'uliyat bilan yondashishi; guruhdoshlari hamda o'z muammolarini jamiyatda o'rabi turgan odamlarning ijtimoiy munosabatlarga kirishidan foydalangan holda mustaqil mas'uliyat bilan bartaraf etishga kirishish malakasi; harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari ijtimoiy muammolarni hal qilishda o'z tasavvuri hamda ijtimoiy videoroliklar-tasviriy targ'ibot materiallarida foydalangan holda jamoadochlari orasida ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish jihatlari muhim o'rinn tutdi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatli kelajak avlod kadrlarini tayyorlashda ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan shaxlarni tarbiyalash hamda jamiyat va davlat o'rtasida o'zaro aloqa o'matuvchi sub'ektning o'z xulq-atvorini va uning ijtimoiy ahamiyatini anglashi ni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan va boshqaradigan ijtimoiy me'yor talablari doirasida amal qilish majburiyati ni anglashi va tafakkuri dunyoqarashini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir deb ta'kidlashimiz mumkin.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy Majlisga Murojaatnomasi". Xalq so'zi. 2020 y. 25 yanvar №-19 son.
2. Begmatov A. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. – Toshkent.: Sharq, 2000 y. – 64-65 b.
3. Quranov M.. "O'zbekiston umumta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslari" p.f.d....diss – T.: 1998 y.
4. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 192 b.
5. Quronboev Q. "Talabalarning ma'naviy - ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)": p.f.n..diss. – T.: O'zPFITI, 2000 y.
6. Ковалева Г. Педагогика миротворчества, социальная ответственность, сотрудничество // Приоритеты современной педагогики. - М., 1993.-С. 109-125.
7. Голубев Н.К. Методология и методы социально-педагогической диагностики. - СПб., 2001.-188 с.
8. Иваненко Ф.И. Использование прошлых успехов учащихся для повышения их ответственности // Вопросы психологии. - 2000. - № 2. -С. 87-93.
9. Ковалева Г. Педагогика миротворчества, социальная ответственность, сотрудничество // Приоритеты современной педагогики. - М., 1993.-С. 109-125.
10. Golubev N.K. Metodologiya i metody sotsialno-pedagogicheskoy diagnostiki. - SPb., 2001.-188 s.